

*Tursunova Marjona Ismatillayevna, Nodirova Farangiz Yaxshiboy qizi.*

*Shahrisabz davlat pedagogika institutining*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*yo'nalishi 2- kurs talabasi.*

## BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA O'ZBEKISTON VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

**Annotatsiya;** Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimidagi Boshlang'ich ta'limga e'tiborning qaratilishi, bunda xorijiy tajribalarning zarurligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar;** Maktabgacha ta'lim, xorijiy tajriba, ta'lim-tarbiya, innovatsiya va zamonaviy ta'lim texnologiyasi.

**Аннотация;** В данной статье рассматривается уделение внимания системе начального образования в Узбекистане и необходимость зарубежного опыта.

**Ключевые слова;** Дошкольное образование, зарубежный опыт, образование инновации и современные образовательные технологии

**Annotation;** This article focuses on the primary education system of Uzbekistan, and reflects on the need for foreign experiences.

**Key words;** Pre-school education foreign experience, education innovation and modern educational technology.

XX asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan Xalqaro ta'lim konsepsiyasida sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Unda ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'limda fanlarni innovatsiya va zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish, o'quvchilarda integratsiyalashgan ta'limni rivojlantirish, ularda faqat ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimning imkoniyatlarini kengaytirishni taqazo qiladi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va o'quv materiallarini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida egallashda kasbiy kompetentlikni orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsni shakllantirish an'anasi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarini asosiy faoliyatidir, shuning uchun ham ulardagi maktabgacha ta'lim tizimining asosini shaxsni erta ijtimoiylashuvi nazariyasiga ko'ra bolani erta rivojlantirish modeli turadi. Ayni shu maqsadga mos yaratilgan Yaponiya ta'lim tizimi besh asosiy yo'nalishini o'z ichiga oladi; bular bolani ruhiy, jismoniy sog'lomligi, muloqatga kirishish ko'nikmasi, atrof haqida bilimlar tizimini shakllantirish, nutqni va ijodkorlikni rivojlantirish. Xuddi shunday ta'lim tizimi eng sifatli hisoblangan xorijiy davlatlardan Koreya ta'limida savodxonlik 100%. Mamlakatda bolalar 2-3 yoshdan boshlab o'qiydi. So'ngi uch yillarda bizning yurtimizda ham boshlang'ich ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidan andoza olgan holda faoliyat olib bormoqda, buning natijasida O'zbekistonimizda boshlang'ich ta'limda o'qiydigan har bir o'quvchi atrof-muhit muhit, oila, mahalla o'zaro shaxslar bilan munosabatlar, til haqida bemalol fikr yuritib o'z ichki tuyg'ularini ifodalay oladi, bundan tashqari Yaponiyada ta'lim iqtisodiy jihatidan Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan psixologlari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi deya qayd etdilar. Yaponiyaning 1872-yilda Ta'lim haqidagi Qonuni qabul qilindi. Qonunga muvofiq tez orada

mamlakat rivojlanishini ta'minlashga samarali xizmat qiluvchi yangi yo'nalishdagi 53750 ta boshlang'ich maktab tashkil etildi. Bu o'quv yurtlardagi ta'lim shakllari G'arb ta'lim uslublari bilan uyg'unlashtirildi. Yaponiyada o'quv yili aprel oyida boshlanib kelasi yilning 31-martida nihoyasiga yetadi. Darslar maktabga qarab dushanbadan jumagacha yoki shanbagacha davom etadi. O'quv yili 3 trimestrdan iborat bo'lib, ularning har biri bahor va qishda qisqa muddatli ta'tillari, yozda bir oylik dam olish kunlari bilan ajratilgan; aprel iyul, sentyabr-dekabr, yanvar-mart. O'quv yili Yaponiyada 240 kun. Darslari 7 soat. Ko'pchilik maktablarda darslar ertalab 8 yarimdan boshlanib uchdan keyin tugaydi. O'quvchilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisosliklari bo'yicha mashg'ulotlarda ixtiyoriy bo'ladilar. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus fanlardan sinovlarga jalb etadilar. Nogiron bolalar uchun maxsus maktablar 6yoshdan boshlab bolalar boshlang'ich ta'lim muassasalariga kiradilar. Boshlang'ich ta'limda umumiy fanlardan; yapon tili (xattotlik), arifmetika, musiqa, san'at, jismoniy tarbiya, (1-6yil o'qish), gumanitar fanlar, tabiiy fanlar (3-6 yillik ta'lim), mehnat (o'qish muddati 5-6yil). Maktablarda maxsus forma yo'q. Davlat va umumta'lim maktablarida o'g'il va qiz bolalar birgalikda o'qitiladi ko'p maktablarida o'quvchilar ota-onalari tomonidan to'laniladigan tushliklarni qabul qilishadi. Bolalar maxsus tadbirlarda ishtirok etadilar, har hafta sinf ishlariga g'amxo'lik qilish, sayohatlarni rejalashtirishadi. Maxsus tadbirlar o'quvchilarning maktab jamoasi a'zosi sifatida faol ishtirok etishi, ma'suliyat tuyg'usini hamkorlikda ishlash istagini tarbiyalash uchun maydon vazifasini ham o'taydi. Boshlang'ich va o'rta ta'lim maktablarida mashg'ulotlar har biri 40 daqiqadan 45 daqiqagacha davom etadi. Ertalabki mashg'ulotlardan so'ng taxminan soat 12:30 larda tushlik qutilarida go'sht, baliq, sabzavotlar va dengiz o'simliklaridan beriladi. Odatda muzqaymoq va mevalar kabi shirinliklar beriladigan tushlik taxminan 40 daqiqa davom etadi. Ba'zi quyi boshlang'ich maktablarda tushlikdan so'ng dars mashg'ulotlari tugaydi va uylariga ketishga ruxsat beradilar. Ba'zi maktablarida 20 daqiqalik tanaffusga ruxsat berishadi. Boshlang'ich maktablarda sport va ingliz tili klublari maktabdan so'ng tashkil etilgan. O'zbekistonlik bo'lajak yosh onalarga tavsiyam shuki farzandlarini o'z vaqtida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga berishlari kerak, negaki bu tashkilotlar bolani ham aqlan ham jismonan rivojlantirishga 2-3yoshdan o'zbek tiliga bemalol gaplashib boshqa chet tillarini ham ma'lum miqdorda o'rganishlarga ko'maklashadi, bundan tashqari bola tarbiyasiga ona bilan tarbiyachining roli katta, tarbiyachi va tengdoshlari bilan muloqatda bo'lgan bola maktabga chiqqanida tez moslashib, darslarga o'rganib qolishi, tafakkuri va qobiliyatida rivojlanish, xotirasida o'sish bo'ladi, xullas uy sharoitda o'sib maktabga chiqqan va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borib so'ng maktabga chiqqan bola alohida ajralib turadi.

**Xulosa qilib aytadigan bo'lsam,** bolalarni maktabga chiqishidan avval maktabgacha ta'lim tashkilotlariga berish bolalarning kelajagi uchun juda muhim omil hisoblanadi. Negaki bugungi kunda ta'lim sifatini yaxshilash bevosita maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bog'liq. Boshqa ko'pgina rivojlangan davlatlar qatori bizda ham maktabgacha ta'lim tashkilotlariga e'tibor ko'proq qaratilsa, ta'lim tizimida ko'zda ko'rinarli darajada o'sish bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar;**

1. N.R. Karimova Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, Innovatsiya va Integratsiya Toshkent- 2020
2. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi Innovatsiya va Integratsiya Toshkent-2013
3. O.M.Jabborova, Z.A.Umarova, I.M.Babaxodjayeva Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, Innovatsiya va Integratsiya
4. M.Abdullayeva, M.Qurbonova, G.Tojiyeva, X.To'xtamatov Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari